



## MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

DSc, dots. **Mustafoyev G'olib**

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ORCID: 0000-0002-6983-4105

[gmustafoyev@gmail.com](mailto:gmustafoyev@gmail.com)

**Qurbonov Tolmasjon**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0009-7503-7872

[tolmasjonqurbonov06@gmail.com](mailto:tolmasjonqurbonov06@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada global ekologik muammolar kuchaygan davrda yashil iqtisodiyotni qo'llash orqali barqaror o'sishga erish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilingan va ularning tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanishning ustuvor yo'nalishlari va imkoniyatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda ushbu soha bo'yicha kadrlar tayyorlash, investitsion muhit yaratish va ekologik xavfni oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, xorij tajribasi, atrof-muhit muhofazasi, qayta tiklanuvchi energiya, muqobil energetika, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar.

## АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В НАШЕЙ СТРАНЕ

DSc, доц. **Мустафоев Голиб**

Международная исламская академия Узбекистана

**Курбонов Толмасжон**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В данной статье проанализирован передовой опыт зарубежных стран по достижению устойчивого роста посредством применения зелёной экономики в период обострения глобальных экологических проблем. Исследованы приоритетные направления и возможности использования этого опыта в условиях Узбекистана. Кроме того, представлены научно обоснованные выводы и предложения, направленные на подготовку кадров в данной сфере, формирование инвестиционной среды и предотвращение экологических рисков в нашей стране.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, устойчивое развитие, зарубежный опыт, охрана окружающей среды, возобновляемая энергия, альтернативная энергетика, солнечная энергия, энергия ветра, экологическая безопасность, энергоэффективность, зелёные технологии.

## ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCES FOR THE DEVELOPMENT OF THE GREEN ECONOMY IN OUR COUNTRY

*DSc, assoc. prof. **Mustafojev Golib**  
International Islamic Academy of Uzbekistan  
**Kurbonov Tolmasjon**  
Samarkand Institute of Economics and Service*

**Abstract.** *This article analyzes the advanced experiences of foreign countries in achieving sustainable growth through the application of a green economy in a period of intensifying global environmental problems. It examines the priority directions and opportunities for applying these experiences in the context of Uzbekistan. In addition, the article presents scientifically grounded conclusions and proposals aimed at training specialists in this field, creating an investment-friendly environment, and preventing environmental risks in our country.*

**Keywords:** *green economy, sustainable development, foreign experience, environmental protection, renewable energy, alternative energy, solar energy, wind energy, environmental safety, energy efficiency, green technologies.*

### **Kirish.**

Jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi, resurslarning cheklanganligi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hamda aholi sonining ortishi natijasida iqtisodiyot va jamiyat tarmoqlarining atrof-muhitga salbiy ta'siri oshib bormoqda. Bugungi kunda insoniyat ekologik muhofaza masalalarining asosiy va hal qiluvchi jihatlarini boshdan kechirmoqda. Negaki, atrof-muhitni asrashga qaratilgan maqsadli va tizimli choralar hozirdan joriy etilmasa, kechiktirilgan har bir qaror qaytarib bo'lmaz oqibatlariga olib kelishi ehtimoli ortadi.

Jahonda an'anaviy iqtisodiy rivojlanish modellari resurslarga va mehnatga asoslangan bo'lib, buning natijasida tabiatga jiddiy zarar etkazildi. Ishlab chiqarishdan olingan foyda ko'pincha atrof-muhitga etkazilgan zarar bilan solishtirganda kamroq bo'lib chiqdi. Ko'plab hududlarda ishlab chiqarish jarayonlari ekologik xavfni minimallashtirmagan. Bular global "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, atrof-muhitni asrash, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

O'zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlash, cheklangan va qayta tiklanmaydigan resurslarni oqilona boshqarish hamda energiya samaradorligini oshirish borasida "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Milliy va mintaqaviy darajada iqtisodiyotni innovatsion yo'nalishga o'tkazish uchun "Yashil iqtisodiyot"ning shakllanish mexanizmlari, rivojlanish qonuniyatlari hamda amaliy tatbiqiy asoslarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida (2019) chet mamlakatlari bilan birgalikda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini rivojlantirishda quyidagilar ta'kidlangan:

yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga "yashil" iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari va boshqa xorijiy donorlarning kreditlari va grantlarini jalb qilish;

milliy va xorijiy ilmiy tashkilotlarning "yashil" texnologiyalarni ilgari surish sohasidagi hamkorligini mustahkamlash;

### Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi xorij mamlakatlarida barqaror o'sishga erishishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu munosabat bilan Nourhane, Dalia va boshqalar (2023) tomonidan yozilgan "Assessing the role of green economy on sustainable development in developing countries" nomli maqolasi mamlakatlarda barqaror rivojlanishga erishishda yashil iqtisodiyotning o'rnini aniqlashga qaratilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, yashil iqtisodiyot uchta asosiy ko'rsatkichlariga: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YAIM), umumiy ishsizlik darajasi hamda qashshoqlik darajasiga bog'liq.

Biroq, Adam (2021) "The Green Economy Development Factors" nomli maqolasida "Yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikning o'sishiga xizmat qiladigan, shu bilan birga ekologik xavflar va tabiiy resurslardan foydalanish darajasini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir", deb e'tirof etgan. Ya'ni, olim "Yashil iqtisodiyot"ni faqat ijtimoiy va ekologik ta'sirini yoritib bergan, ammo iqtisodiy va huquqiy omillar ta'sirini e'tibordan chetda qoldirgan.

Lukas (2015), "Green economy for sustainable development and poverty eradication" nomli maqolada "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonining ta'siri atroflicha muhokama qilishda turli xil qarashlar mavjud. "...birinchidan, "atmosfera va ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan iqtisodiy rivojlanish o'rtasida muqarrar ravishda ziddiyat mavjud, ikkinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish rivojlanayotgan davlatlar uchun yuqori xarajatli jarayon bo'lib, go'yoki bunday transformatsiyani faqat rivojlangan mamlakatlarga amalga oshira oladi, uchinchidan, ushbu jarayon rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy o'sishiga tahdid solishi mumkin, chunki ayrim rivojlangan mamlakatlar yashil iqtisodiyot tamoyillaridan faqat o'z manfaatlari yo'lida, rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga foydalanadi".

Tyaglov, Kiseleva va Timchenko (2017) "Современные аспекты развития «зеленой экономики» в Российской Федерации" nomli monografiyada Rossiya Federatsiyasida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning nazariy asoslari, "yashil iqtisodiyot"ning dolzarbligini belgilovchi ekologik omillar hamda uni amalga oshirish bo'yicha institutlar va instrumentlar tizimi keng yoritilgan.

Olimlarning fikricha "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi, o'z mohiyatiga ko'ra, "toza" yoki ekologik xavfsiz texnologiyalarga asoslanadi hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini saqlab qolishni, shuningdek, yakuniy iste'mol mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish jarayoniga qaytarishni ta'minlaydigan iqtisodiy modelni anglatadi. Shu bilan birga, J.B.Smagulova, A.Y.Muxanova va G.I.Musayevalar "Yashil iqtisodiyotga o'tishning jahon tajribasi tahlili: iqtiboslar va yo'nalishlar" nomli tadqiqot ishida jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotning o'rni, uning rivojlanish tendensiyalari, xorijiy mamlakatlar va mintqalardan yashil iqtisodiyotga o'tishning tajribasi, bu tajribaning yutuq va kamchiliklari borasida fikr yuritiladi (Подгорный, Шуленбаева, 2022).

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot sharoitiga o'tish zaruriyati tug'ilganidan buyon olimlar tomonidan ushbu mavzu yuzasidan ko'plab tadqiqot va ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, professor Vaxabovning (2020) "Yashil iqtisodiyot" nomli darsligida "Yashil iqtisodiyot"ning ayrim masalalarini ochishga uringan. Xususan, olim "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati, mexanizmi, rivojlantirish yo'nalishlari, xorij tajribasini mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslab bergan. Boshqa tomondan, Mirzayev, Sheraliyev va Ulug'murodovlarning (2025) "Yashil iqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmada yashil iqtisodiyotning asosiy nazariy jihatlarini, atrof-muhit bilan bog'liq muammolar va ularning ekologik resurslarga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri, mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot"ni ilgari surishning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarda barqaror taraqqiyotga erishish jarayonida ekologik muammolarning o'rni, shuningdek Respublikamizda ekologik vaziyati hamda hukumatning bu boradagi davlat siyosatini amalga oshirish masalalari, qishloq xo'jaligi taraqqiyotining yashil iqtisodiyot bilan bog'liqligi, ekologik xizmatni amalga oshirish kabi masalalar chuqur tadqiq qilingan.

Turobova va Kadirova (2025) “Yashil iqtisodiyot” nomli o’quv qo’llanmada yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, prinsiplari, tizimlari va ularni amalda qo’llash usullarini tushuntirib berishgan. Unda barqaror rivojlanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligi, iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish, ekologik xavf-xatarlar va yashil texnologiyalar, yashil iqtisodiyotga o’tishning iqtisodiy mexanizmlari va shartlari, yashil iqtisodiyotdagi tashqi ta’sirlar, yashil iqtisodiyotga o’tishda davlat va bozorning hamkorligi, logistikada yashil texnologiyalardan foydalanish xususiyatlari, ekologik tadbirkorlik kabi mavzular keng qamrovda yoritilgan. “Yashil iqtisodiyot - atrof-muhit va iqtisodiy o’sishning o’zaro bog’liq muvozanatini yaratishga qaratilgan yondashuvdir”.

Biroq, Yuldashev (2024) “O’zbekistonda yashil iqtisodiyotga o’tishning iqtisodiy, tashkiliy xuquqiy asoslarining yaratilishi va rivojlantirilishi” nomli maqolasida “Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim bo’lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan, inson hayoti va sog’lig’i uchun zarur bo’lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani barqaror toza musaffo havo bo’lishini ta’minlagan holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarini bilan bog’liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo’nalishidir”, deb izohlangan.

Muminovanning (2023) “Yashil” iqtisodiyotga o’tishning xorijiy tajribalari” nomli maqolada “yashil” iqtisodiyotga o’tish, yashil iqtisodiy o’sishga erishishning xorijiy mamlakatlarining energiyadan foydalanish tajribalari yoritilgan. Xorijiy mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan muqobil energiya manbalarini yaxshilash, elektr energiyasi ishlab chiqarish evolyusiyasi, Braziliyada gidroenergetika ishlab chiqarish, 2030 yilga qadar asosiy ekologik toza energiya texnologiyalarining bozor hajmi tahlil qilingan. Shuningdek, OECD mamlakatlari uchun oylik elektr energiyasi ishlab chiqarish va savdo ma’lumotlari va boshqa bir qancha mamlakatlar uchun elektr energiyasi ishlab chiqarish ma’lumotlari keltirilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining nazariy asoslari, rivojlangan davlatlar tajribasi va O’zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari kompleks yondashuv orqali o’rganildi. Bunda tadqiqot metodologiyasi quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlarga tayangan:

Nazariy tahlil usuli. “Yashil iqtisodiyot”, “barqaror rivojlanish”, “resurs samaradorligi”, “muqobil energetika” kabi kategoriyalar bo’yicha xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar qiyosiy o’rganildi. H.Nourhane, S.Adam, E.N.Lukas, S.G.Tyaglov, A.V.Vahabov va boshqalarning ilmiy ishlari nazariy asos yaratishda qo’llanildi.

Qiyosiy tahlil. Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH, Daniya, Singapur, Niderlandiya kabi davlatlarning yashil iqtisodiyotga o’tish tajribalari O’zbekiston sharoitidagi imkoniyatlar bilan solishtirildi. Energiya siyosati, innovatsiyalar, ekologik texnologiyalar, davlat yordami va infratuzilma bo’yicha qiyosiy mezonlar ishlab chiqildi.

Normativ-huquqiy tahlil. O’zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish strategiyasiga oid Prezident qarorlari hamda ekologiya va energetikaga doir huquqiy-me’yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

Statistik tahlil. Xorijiy davlatlarda qayta tiklanuvchi energiya ulushi, investitsiyalar hajmi, yangi ish o’rinlari, uglerod chiqindilari dinamikasi kabi ko’rsatkichlar xalqaro ochiq ma’lumotlar asosida o’rganildi. O’zbekistonning quyosh va shamol elektr stansiyalari bo’yicha mavjud statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Empirik umumlashtirish. Xorijiy tajribalar asosida O’zbekiston uchun mos, iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali bo’lgan yo’nalishlar umumlashtirildi va amaliy xulosalar chiqarildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global ekologik muammolarning kuchayishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi yashil iqtisodiyotga o'tishni davr talabi sifatida ilgari surmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlovchi, resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan yangi iqtisodiy modeldir. Ayni vaqtda dunyoning ko'plab mamlakatlari bu yo'nalishda strategik islohotlar olib bormoqda. Yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida joriy qilgan ayrim davlatlar tajribasini tahlil qilamiz<sup>1</sup>.

Xalqaro amaliyotda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida turli yondashuvlar mavjud. Quyida bir nechta ilg'or davlatlarning tajribalari ko'rib chiqiladi:

Yashil iqtisodiyotni joriy qilib, undan samarali foydalanayotgan, bu sohada yetakchi davlatlardan biri **Janubiy Koreya** sanaladi. Ushbu mamlakatda 2011-yildan boshlab har yili YaIMning 3 foizi, ya'ni 60 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag' yashil sektorni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. O'tgan davr mobaynida ushbu sektorda 1,8 mln yangi ish o'rni yaratilgan. Yashil iqtisodiyotni milliy strategiya sifatida qabul qilgan Janubiy Koreya asosiy e'tiborni sanoatga, energetikaga, investitsiyaga, transportning yashil turlariga, ichimlik suvining muqobil manbalariga, chiqindilarni qayta ishlashga, istirohat bog'larini rivojlantirishga, shaharlardagi daryolarning tozaligiga qaratmoqda. Vazirliklar amalga oshirayotgan turli dasturlar budjet xarajatlarini ortiqcha sarflamaslik maqsadida yagona paketga birlashtirilgan. 2011-yildan boshlab Janubiy Koreyada "yashil" tovarlar va xizmatlar iste'molini rag'batlantirish maqsadida "yashil" to'lov kartalari joriy qilingan<sup>2</sup>.

**AQSh**da yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida muqobil energetikani samarali tashkil etishdan boshlangan. Mazkur maqsadda davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, 2030-yilda mamlakat bo'ylab ishlab chiqarilayotgan energiya 65 foizi quyosh panellari yordamida yaratishga erishish rejalashtirilgan. 2014-yildan boshlab har bir shtatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z hududiy dasturlari qabul qilingan. 2016-yildan keyingi 10 yil uchun ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilashga mo'ljallangan dastur asosida investitsiyalar ajratilmoqda. Mazkur dastur asosida 10 mln yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

**Yevropa Ittifoqining** barcha a'zo davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga mo'ljallangan dasurlar qabul qilingan. Energetika, jamoat transporti va infratuzilma, qurilish, chiqindilarni utilizatsiya qilish yo'nalishlarida dastabki yo'nalishlar sifatida tanlangan va hozirga qadar ancha hajmdagi ishlar amalga oshirilgan. 2019-yil dekabrda Yevropa Ittifoqida "Yevropa yashil yo'li" dasturi qabul qilindi. Unga asosan 2050-yilga mintaqada uglerod neytralligiga erishish, 2030-yilga qadar issiqxona gazlarini 1990-yildagiga nisbatan 55 foizga kamaytirish, ekologik toza texnologiyalarni investitsiyalash, jamoat transportining nisbatan toza va arzon turlarini qo'llash, innovatsiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish maqsadida sanoatni qo'llab-quvvatlash, energetika sektorini dekorbanizatsiyalash, binolarning energiya samaradorligini oshirish kabi tadbirlar amalga oshirish belgilangan. Yevropada avtomobildan chiqayotgan zararli gazlar bo'yicha Yevro-6 standarti qabul qilingan bo'lib, 2025- yildan Yevropa avtomobil sanoatida Yevro-7 standartini joriy qilish rejalashtirilgan. Yevro-7 standartiga asosan ichki yonuv dvigateliga ega avtomobillarni ishlab chiqarishga taqiq qo'yiladi.

Yashil iqtisodiyotni joriy qilish va uni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali rivojlantirish sohasida **Xitoy** ancha natijalarga erishgan. Iqtisodiyot tarmoqlarining tez sur'atlarda o'sishi, aholining zichligi yuqoriligi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, qator ekologik muammolarning yuzaga kelganligi Xitoy iqtisodiyotini yashil iqtisodiyotga o'tishini talab qiladi. Xitoyning yashil iqtisodiyotga o'tishda dastlabki urg'uni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirish, mamlakat energiya balansida muqobil energiya ulushini oshirish, aholini toza ichimlik suvi va toza atmosfera havosi hamda xavfsiz oziq-ovqat

<sup>1</sup> [file:///C:/Users/User/Downloads/Yashil iqtisodiyotga otishda xorijiy davlatlar ta.pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/Yashil%20iqtisodiyotga%20otishda%20xorijiy%20davlatlar%20ta.pdf)

<sup>2</sup> [www.greenpeace.org](http://www.greenpeace.org)



mahsulotlari bilan ta'minlash, ekologik madaniyatni shakllantirish yo'nalishlarida olib borishga yo'naltirdi. 2020-yilda 15 foiz elektr energiya qayta tiklanuvi manballardan olingan. 2011-2015-yillarda 2 mingdan ortiq ekologik zararli korxonalar majburiy ravishda tugatildi. Xitoy energiyatejamkor va qayta tiklanuvchi energetikaga AQSh va YeI davlatlariga nisbatan bir necha barobar ortiq miqdordagi davlat investitsiyalarini joriy qilib kelmoqda. Buning oqibatida Xitoy kompaniyalari 2020-yil holatida jahonda ishlab chiqarilayotgan quyosh batareyalarining 50 foizga yaqinini va shamol dvigatellarining 25 foizini eksport qilmoqda. Hozirgi davrda nanotexnologiyalarga katta e'tibor qaratilgan. 2022-yil boshda mamlakatda elektromobillar ishlab chiqarish 45 foizga o'sdi va hozirda Xitoy elektromobillar ishlab chiqarishda jahon etakchisiga aylanib ulgurdi, jahon bozorining 60 foizidan ortiq elektromobillari ushbu mamlakatda ishlab chiqariladi. Xitoy 2035-yilgacha avtomobil parkini 100 foizga yashillashtirishni rejalashtirgan<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, Xitoy hukumati yashil energetika, elektr transport va ekologik texnologiyalarni rivojlantirish uchun yillik milliardlab dollarlik subsidiya ajratmoqda. 2030-yilgacha mamlakat CO<sub>2</sub> chiqindilarini maksimal darajaga etkazib, keyinchalik kamaytirishni rejalashtirgan. Shamol va quyosh energetikasi bo'yicha Xitoy dunyoda etakchiga aylangan.

"Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va xalq farovonligini oshirishning muhim omiliga aylanadi. Shu ma'noda, ushbu xalqaro seminar mamlakatimiz vakillari uchun boy tajriba va yangi imkoniyatlar manbai bo'ldi"<sup>4</sup>.

**Germaniya tajribasi.** Germaniya "Energiewende" dasturi asosida atom va ko'mir energiyasidan bosqichma-bosqich voz kechib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tdi. U erda energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik transport turlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

2023 yilda Germaniyada 3,4 million kishi Green Tech kompaniyasida ishlagan. Aylanma iqtisodiyot ushbu ish o'rinlarining uchdan bir qismini tashkil qiladi. An'anaviy chiqindilarni yig'ish va qayta ishlashdan tashqari, qayta tiklanadigan xom ashyolardan foydalanish va qayta ishlanadigan mahsulotlarni ishlab chiqish misollari mavjud. Umuman olganda, sanoatdagi ish o'rinlarining deyarli to'rtidan biri ekologik toza mobillik sohasiga to'g'ri keladi va GreenTech xodimlarining 12 foizi energiya samaradorligi sohasiga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda atrof-muhit, resurslar va iqlimni muhofaza qilish bo'yicha bandlik barqaror ravishda o'sib bormoqda. 2010 yildan 2023 yilgacha ish o'rinlari soni 30 foizdan ortiq o'sdi.

7,5% ulushi bilan atrof-muhit sektoridagi bandlik Germaniyada mehnat bozori uchun muhim omil hisoblanadi. Uning jami bandlikdagi ulushi 2010 yildan buyon barqaror ravishda ortib bormoqda. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida bandlik yillar davomida nomutanosib ravishda o'sib borayotganini anglatadi<sup>5</sup>.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. "Yashil iqtisodiyot", asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o'sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta'minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyotga" o'tish iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Ammo butun jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylik xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to'plagan, o'z qudratining eng yuqori nuqtasiga etgan vaqtda jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda ekologik

<sup>3</sup> [https://english.www.gov.cn/news/202503/04/content\\_WS67c66db6c6d0868f4e8f0493.html](https://english.www.gov.cn/news/202503/04/content_WS67c66db6c6d0868f4e8f0493.html)

<sup>4</sup> <https://uza.uz/oz/posts/yashil-sanoat-boyicha-xalqaro-hamkorlik-xitoy-tajribasi-va-yangi-imkoniyatlar-776659>

<sup>5</sup> [https://www.umweltbundesamt.de/en/data/environmental-indicators/indicator-employment-in-environmental-protection?utm\\_source=chatgpt.com#assessing-the-development](https://www.umweltbundesamt.de/en/data/environmental-indicators/indicator-employment-in-environmental-protection?utm_source=chatgpt.com#assessing-the-development)

yo'naltirilgan model tanlanmas ekan, globallashuv sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo'q bo'lib ketishgacha borish xavfi yuzaga keladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin<sup>6</sup>.

**O'zbekiston sharoitida imkoniyatlar.** O'zbekiston quyosh nurlanishi bo'yicha yuqori salohiyatga ega. Bu esa qayta tiklanuvchi energetika – ayniqsa quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik barqarorlikka erishish mumkin. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonida yashil infratuzilma, jamoat transportini "yashillashtirish" (elektr transport, veloyo'llar) masalalari dolzarbdir.

Xorijiy tajribaga tayangan holda O'zbekiston yashil iqtisodiyotini shakllantirish

1. Germaniyaning Energiewende (Energiyaga o'tish): O'zbekiston Germaniyaning qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va atom energetikasini bosqichma-bosqich to'xtatish tajribasidan o'rganishi mumkin. Siyosatni rag'batlantirish, qo'shimcha tariflar va tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish orqali Germaniya qayta tiklanadigan energiya manbalarini, xususan, quyosh va shamol energiyasini qabul qilish bo'yicha jahon etakchisiga aylandi.

2. Daniyaning shamol energetikasi muvaffaqiyati: Daniya shamol energiyasini o'zining energiya aralashmasiga muvaffaqiyatli integratsiya qildi, shamol energiyasi elektr energiyasi ishlab chiqarishning muhim qismini tashkil qiladi. O'zbekiston qulay siyosat, tarmoq integratsiyasi va davlat-xususiy sheriklik orqali shamol energetikasini rivojlantirishga ko'maklashish orqali Daniyaga taqlid qilishi mumkin.

3. Kosta-Rikaning qayta tiklanadigan energiyaga bo'lgan majburiyati: Kosta-Rika qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishda ta'sirchan marralarga erishdi, elektr energiyasining deyarli 100% qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqariladi. Kosta-Rika gidroenergetika, geotermal, quyosh va shamol energiyasiga sarmoya kiritib, mamlakatlar barqarorlikka qanday ustuvor ahamiyat berishlari va energiya mustaqilligiga erishishlari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

4. Singapurning yashil qurilish tashabbuslari: O'zbekiston energiya samaradorligi va barqaror shahar rivojlanishini rag'batlantirish uchun Singapurning yashil qurilish tashabbuslariga namuna sifatida qarashi mumkin. Singapur qat'iy qurilish me'yorlarini, yashil sertifikatlash dasturlarini va yashil binolarni loyihalash uchun rag'batlantirishni amalga oshirib, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikka hissa qo'shdi.

5. Niderlandiyaning aylana iqtisodiyoti strategiyasi: Niderlandiya chiqindilarni ishlab chiqarishni minimallashtirish va resurslar samaradorligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qabul qildi. Mahsulotlarni qayta loyihalash, chiqindilardan energiyaga aylantirish loyihalari va aylanma xaridlar amaliyoti kabi tashabbuslar orqali Gollandiya O'zbekiston uchun aylanma iqtisodiy modelga o'tishda qimmatli saboqlar beradi.

6. Shvetsiyaning chiqindilarni boshqarish amaliyoti: Shvetsiyaning chiqindilarni boshqarish bo'yicha innovatsion amaliyotlari, jumladan, chiqindilarni energiyaga yoqish va keng qamrovli qayta ishlash dasturlari mamlakatga chiqindilarni poligonlardan yuqori darajada olib chiqish imkonini berdi. O'zbekiston chiqindixonaga qaramlikni kamaytirish va chiqindilarni boshqarishga nisbatan barqaror yondashuvni ilgari surish uchun shunga o'xshash yondashuvlarni o'rganishi mumkin.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dastlabki jarayonlar boshlangan, bu borada huquqiy asoslar shakllantirilib borilmoqda, qator farmon va qarorlar rasmiylashtirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlash" to'g'risidagi, 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidan.

<sup>6</sup> [file:///C:/Users/User/Downloads/ZDIT+1121%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/ZDIT+1121%20(1).pdf)

1-jadval

**O'zbekiston va Xorijiy mamlakatlarda rivojlangan yashil iqtisodiyotning  
o'ziga xos xususiyatlari**

| <b>Xususiyatlari</b>                               | <b>O'zbekiston*</b>                                                                                                                                                                                                                                                                   | <b>Xorijiy mamlakatlarda**</b>                                                                                                                                                                                                        |
|----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Rivojlanish darajasi va strategik maqsadlar</b> | Yashil iqtisodiyot rivojlanishi dastlabki bosqichda bo'lib, asosan quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish kuchaymoqda. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida energetika va suv resurslarini tejashga alohida e'tibor qaratilmoqda. | Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy kabi mamlakatlarda yashil iqtisodiyotda yirik sarmoyalar mavjud. Karbonsiz iqtisodiyotga o'tish va neytrallikka erishish asosiy maqsad qilib belgilangan. Texnologiyalar va innovatsiyalar rivojlangan. |
| <b>Energiya manbalari diversifikatsiyasi</b>       | Asosan quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishga urg'u berilmoqda. Gaz va neftga qaramlikni kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish ustuvor vazifa.                                                                                                     | Yevropada biomassa, geotermal va vodorod energetikasi faol rivojlangan. Daniya va Germaniya shamol energetikasida dunyo etakchilari hisoblanadi.                                                                                      |
| <b>Qonunchilik va davlat qo'llab-quvvatlashi</b>   | Davlat subsidiyalari qo'llanilmoqda, masalan quyosh panellarini o'rnatish uchun moliyaviy yordam berilmoqda. Biroq xalqaro standartlarga mos qonunchilik hali to'liq shakllanmagan.                                                                                                   | Yashil iqtisodiyotni tartibga soluvchi qonunchilik tizimi mukammal. Yevropa Yashil Kelishuvi doirasida barcha yo'nalishlar qo'llab-quvvatlanadi.                                                                                      |
| <b>Xususiy sektor va innovatsiyalar roli</b>       | Xususiy sektor ishtiroki past, davlat tashabbuslari ustun. Innovatsiyalar sekin rivojlanmoqda, mahalliy texnologiyalar bazasi cheklangan.                                                                                                                                             | Xususiy kompaniyalar etakchi rol o'ynaydi. Tesla, Siemens, Vestas kabi kompaniyalar global miqyosda faol va innovatsion ishlab chiqaruvchilar.                                                                                        |
| <b>Suv resurslari va ekologik muammolar</b>        | Suv tejash eng muhim masala. Qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va er degradatsiyasini oldini olish asosiy yo'nalish sanaladi.                                                                                                                      | Raqamli texnologiyalar orqali suv boshqaruvi avtomatlashtiriladi. Masalan, suv oqimini monitoring qilish tizimlari keng qo'llaniladi.                                                                                                 |
| <b>Ijtimoiy ahamiyat</b>                           | Yashil iqtisodiyot aholining yashash sifatini yaxshilash, ekologik muvozanatni tiklash va sog'lom muhit yaratishga qaratilgan.                                                                                                                                                        | Global darajada yashil iqtisodiyotga o'tish ijtimoiy tizimlar moslashuvchanligini oshirmoqda hamda yangi yashil ish o'rinlari yaratmoqda.                                                                                             |

\* 2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi.// <https://lex.uz/docs/4539502?ONDATE=05.10.2019%2000>.

\*\* European Green Deal, 2020.

Yashil iqtisodiyot hududiy va makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan birga aholi farovonligini oshishiga, tabiiy muhit va aholi salomatligining yaxshilanishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo'ladiki, yashil iqtisodiyotni dastlabki rivojlantirish jarayonida ustuvor tarmoqlarga e'tibor qaratish va ularning imkoniyatlarini kengaytirgan holda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham yaxshilab borish samarali sanaladi. O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish va uni samarali rivojlantirish uchun etarli tabiiy-iqlimiy, ekologik, moliyaviy-iqtisodiy, texnologik imkoniyatlarga ega. Bu borada etakchi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanilmoqda<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> [file:///C:/Users/User/Downloads/Yashil iqtisodiyotga otishda xorijiy davlatlar ta.pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/Yashil%20iqtisodiyotga%20otishda%20xorijiy%20davlatlar%20ta.pdf)



### Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tahlil qilgan mamlakatlarda yashil energetika, aylanma iqtisodiyot, ekologik transport, chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni tejash kabi yo'nalishlar nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki yangi iqtisodiy o'sish drayverlarini shakllantiradi. Xitoy, Koreya, Germaniya, Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarning tajribasi yashil iqtisodiyotning innovatsiyalar, sanoat modernizatsiyasi, mehnat bozori barqarorligi va yashash sifati yaxshilanishidagi o'rnini yaqqol isbotlaydi. Ularning muvaffaqiyati davlat siyosati izchilligi, ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish, texnologik transformatsiya, korxonalar bilan faol hamkorlik va ekologik madaniyatni keng yoyish orqali ta'minlangan.

O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning rivojlanishi tabiiy-iqlimiy resurslar, geografik joylashuv va energiya salohiyatining yuqoriligi tufayli katta ustunliklarga ega. Mamlakatda ushbu yo'nalishda huquqiy asoslar shakllanayotgani, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining bosqichma-bosqich joriy etilayotgani va ekologik boshqaruv tizimining takomillashib borayotgani samarali iqtisodiy modelga o'tish uchun muhim omillardir. Biroq texnologik baza, innovatsion infratuzilma, xususiyl sektor faolligi va yashil moliya mexanizmlarining rivojlanish darajasi hali to'liq shakllanmagan. Shuning uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini O'zbekistonning milliy sharoitiga mos ravishda adaptatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish kelgusida barqaror rivojlanishning eng muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijasidan kelib chiqib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Birinchidan, quyosh va shamol elektr stansiyalari bo'yicha davlat-xususiyl sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish, hududlarda potensial xaritalar asosida investitsiya klasterlari tashkil etish;

Ikkinchidan, ekologik toza texnologiyalarni import qiluvchi korxonalarga soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish orqali energiya tejamkor qurilish materiallari, chiqindilarni qayta ishlash uskunalari, suvni tejovchi texnologiyalar bo'yicha preferensiyalar berish;

Uchinchidan, Ekologik ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish ya'ni maktab, kollej va universitetlar uchun "Yashil iqtisodiyot", "Ekologik menejment", "Yashil energetika" kabi fanlarni joriy etish;

To'rtinchidan, shahar transportini elektr avtobuslar, veloyo'laklar, elektromobillar uchun infratuzilmalarni yaratish;

Beshinchidan, tomchilatib sug'orish, lazerli er tekislash, raqamli suv monitoringi, agroteknologik xaritalarni yaratish;

Ushbu takliflar orqali O'zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishi va xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga mos holda joriy etishi mumkin.

### Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Adam Sulich (2021) "The Green Economy Development Factors" Uniwersytet Ekonomiczny we Wrocławiu Wrocław University of Economics and Business Jan 29, [https://mecocommunity.infoproject.eu/wp-content/uploads/2023/09/Sulich\\_The\\_Green\\_Economy\\_Development\\_Factors.pdf](https://mecocommunity.infoproject.eu/wp-content/uploads/2023/09/Sulich_The_Green_Economy_Development_Factors.pdf).

Elnoraxon Muminova (2023) "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning xorijiy tajribalari April [https://www.researchgate.net/publication/370143481\\_YASHIL\\_IQTISODIYOTGA\\_O'TISHNING\\_XORIJIY\\_TAJRIBALARI](https://www.researchgate.net/publication/370143481_YASHIL_IQTISODIYOTGA_O'TISHNING_XORIJIY_TAJRIBALARI).

Erica Novianti Lukas (2015) "Green Economy for Sustainable Development and Poverty Eradication" 6th International Conference on Social Sciences Istanbul, 11-12 September [https://www.academia.edu/download/38615417/6th\\_ICSS\\_2015\\_Proceedings\\_Book\\_Vol\\_4\\_Draft\\_3.pdf#page=403](https://www.academia.edu/download/38615417/6th_ICSS_2015_Proceedings_Book_Vol_4_Draft_3.pdf#page=403)

Mirzayev K.Dj., Sheraliyev A.S., Ulug'murodov F.F. (2025) "Yashil iqtisodiyot" o'quv qo'llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, - 516 bet.

Nourhane Houssama; Dalia M. Ibrahiemb; Sanhita Sucharitam; Khadiga M. El-Aasarb; Rehab R. Esilyd; Narayan Sethi (2023) "Assessing the role of green economy on sustainable development in developing countries" Heliyon a cell press journal [https://www.cell.com/heliyon/fulltext/S2405-8440\(23\)04514-0](https://www.cell.com/heliyon/fulltext/S2405-8440(23)04514-0).

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son <https://lex.uz/docs/-4539502>.

Turobova Hulkar Rustamovna, Kadirova Maral Matyakubovna. (2025) Yashil iqtisodiyot / [Matn]: o'quv qo'llanma / Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, - 96 b [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13728\\_2\\_57930C6E2F5DFBA639E279F74A2E76BF846B7E63.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13728_2_57930C6E2F5DFBA639E279F74A2E76BF846B7E63.pdf).

Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmamatov Sh.A., Butayev M.T. (2020) "Yashil iqtisodiyot" darslik.-T.: "Universitet", - 296 bet.

Yuldashev Mutalib Ibragimovich (2024) "O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy, tashkiliy xuquqiy asoslarining yaratilishi va rivojlantirilishi" international scientific-practical conference «green economy - the economy of the future: innovations, investments and prospects» april 24, <https://zenodo.org/records/11042911>.

Подгорный В., Шуленбаева Ф.А. (2022) Использование "зеленой экономики" для устойчивого развития сельского хозяйства Казахстана <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2022/08 /ispolzovanie-zelenoj-jekonomiki-dlja-ustojchivogo.pdf>

Тяглов С.Г., Киселева Н.Н., Тимченко В.А. (2017) "Современные аспекты развития «зеленой экономики» в Российской Федерации" Монография Ростов н/Д.: Содействие-XXI век, - 104 с.: ил. ISBN 978-5-91423-137-5 [https://books.google.com/books?hl=ru&lr=&id=-BczDwAAQBAJ&oi=fnd&pg=PA3&dq=%D0%A0%D0%90%D0%97%D0%92%D0%98%D0%A2%D0%98%D0%95+%D0%97%D0%95%D0%9B%D0%95%D0%9D%D0%9E%D0%99+%D0%AD%D0%9A%D0%9E%D0%9D%D0%9E%D0%9C%D0%98%D0%9A%D0%98&ots=zKd3sxH5WC&sig=Q\\_F8Theu5rUZTnzPxZms6wLZfk0](https://books.google.com/books?hl=ru&lr=&id=-BczDwAAQBAJ&oi=fnd&pg=PA3&dq=%D0%A0%D0%90%D0%97%D0%92%D0%98%D0%A2%D0%98%D0%95+%D0%97%D0%95%D0%9B%D0%95%D0%9D%D0%9E%D0%99+%D0%AD%D0%9A%D0%9E%D0%9D%D0%9E%D0%9C%D0%98%D0%9A%D0%98&ots=zKd3sxH5WC&sig=Q_F8Theu5rUZTnzPxZms6wLZfk0)